




2021- yil yanvar-may holatiga ko'ra dastlabki ma'lumot



NAVOIY VILOYATIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **3 246,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **6,1 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **503,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **100,3 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **2 742,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **107,2%**), uyushmagan savdo tovar aylanmasi **156,9** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **119,9 %**) tashkil etdi.


Chakana savdo tovar
aylanmasi tarkibi, foizda



O'sish sur'atlari, foizda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm



HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

ENG YUQORI ULUSH

Navoiy sh.
1 075,7

Navoiy viloyati chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **33,1 %** ulush bilan **1 075,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Karmana t.
551,2

Xatirchi t.
365,0

Qiziltepa t.
350,7

Zarafshon sh.
323,5

Navbahor t.
169,4

Uchquduq t.
155,5

Nurota t.
148,6

Konimex t.
84,7

Tomdi t.
22,1

UMUMIY MA'LUMOT

2021- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **3 246,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **106,1 %** ni tashkil etdi.



ENG QUYI ULUSH


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Tomdi tumani **0,7 %** ulush bilan **22,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2020-yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2020- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	3 246,4	106,1	503,8	100,3	2 742,6	107,2
Navoiy sh.	1 075,7	106,6	364,7	81,3	711,1	126,8
Zarafshon sh.	323,5	108,9	14,2	217,2	309,3	106,5
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	551,2	108,7	91,2	694,7	460,0	93,2
Konimex	84,7	105,4	2,3	75,4	82,4	106,5
Qiziltepa	350,7	101,8	5,9	159,9	344,8	101,2
Navbahor	169,4	101,1	17,6	127,6	151,8	98,7
Nurota	148,6	107,4	2,1	224,6	146,5	106,6
Tomdi	22,1	104,5	0,2	129,4	21,9	104,3
Uchquduq	155,5	108,3	1,5	893,0	153,9	107,4
Xatirchi	365,0	103,6	4,1	33,9	360,9	106,1

2020- yilning mos davriga nisbatan chakana savdo aylanmasi o'sishining yuqori ko'rsatkichlari Navoiy (**106,6** %) va Zarafshon (**108,9** %) shaharlari, shuningdek Uchquduq (**108,3** %), Nurota (**107,4** %) va Konimex (**105,4** %) tumanlarida qayd etildi.

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning mos davriga nisbatan **0,3 %** ga ko'paydi va **503,8** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa, umumiy savdo hajmining **15,5 %** ulushiga to'g'ri keladi.

Yirik korxonalar , foizda



Eng yuqori ulushga ega hududlar (jami viloyatdagi yirik korxonalar hajmiga nisbatan), foizda

Navbahor t. 17,6
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm


3,5

Karmana t. 91,2
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm


18,1

Navoiy sh. 364,7
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm

72,4



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari, foizda

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 2 742,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 7,2 % ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 84,5 % ni tashkil etdi.



Xatirchi t. 360,9
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm

13,2


Karmana t. 460,0
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm

16,8

Navoiy sh. 711,1
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm


25,9

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi yuqori ulushga ega hududlar (shahar yoki tuman jami hajmiga nisbatan), foizda



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, foizda

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tomdi (**99,2 %**), Uchquduq (**99,0 %**), Xatirchi (**98,9 %**), Nurota (**98,6%**), Qiziltepa (**98,3 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **15,5 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Navoiy (**33,9 %**) va Zarafshon (**4,4 %**) shaharlarida, Navbahor (**10,4 %**), Karmana (**16,5 %**) va Konimex (**2,7 %**) tumanlarida kuzatildi.



AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2021-yilning yanvar-may oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 197,5** ming so'mni (2020- yilning mos davriga nisbatan **4,3** % ga o'sdi) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Navoiy shahri (**7 308,0** ming so'm), Karmana (**4 285,9** ming so'm) va Uchquduq (**4 123,9** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Hajm, ming so'm	2020- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	3 197,5	104,3
Navoiy sh.	7 308,0	104,6
Zarafshon sh.	3 805,6	107,7
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	4 285,9	106,4
Konimex	2 333,4	103,6
Qiziltepa	2 276,0	100,4
Navbahor	1 474,2	99,4
Nurota	1 579,0	105,6
Tomdi	1 455,5	101,7
Uchquduq	4 123,9	107,2
Xatirchi	1 805,2	102,1

Eng yuqori hajm,
ming so'm



1	Navoiy shahar, 7 308,0
2	Karmana tuman, 4 285,9
3	Uchquduq tuman, 4 123,9
4	Zarafshon shahar, 3 805,6
5	Konimex tuman, 2 333,4
6	Qiziltepa tuman, 2 276,0
7	Xatirchi tuman, 1 805,2
8	Nurota tuman, 1 579,0
9	Navbahor tuman, 1 474,2
10	Tomdi tuman, 1 455,5




Eng quyi hajm,
ming so'm

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-may oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **156,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **9,5 %** ga o'sdi. Shu jumladan, 1-bozor va 1-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **88,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,7 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **68,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 112,0 %) tashkil etdi.


Uyushmagan savdo tovar aylanmasi, foizda



Dehqon bozorlari

Chorva bozorlari

Uyushmagan savdo tovar aylanmasida ulushi katta hududlar, foizda



Tovar aylanmasi ulushi va hajmi

Uyushmagan savdo

156,9 mlrd. so'm, 100 %

Dehqon bozorlari

88,0 mlrd. so'm 56,1 %

Chorva bozorlari

68,9 mlrd. so'm 43,9%

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2021 - yilning yanvar-may oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **88,0** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **68,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

*Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2020- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	156,9	109,5	88,0	107,7	68,9	112,0
Navoiy sh.	35,5	125,6	35,5	125,6	-	-
Zarafshon sh.	0,7	12,4	0,7	12,4	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	43,9	100,6	3,3	109,9	40,6	99,8
Konimex	5,7	127,3	2,1	104,6	3,6	145,8
Qiziltepa	17,3	114,1	9,9	117,1	7,4	110,4
Navbahor	0,8	101,9	0,8	101,9	-	-
Nurota	8,2	137,7	3,0	116,6	5,2	153,5
Tomdi	1,0	59,6	1,0	59,6	-	-
Uchquduq	2,0	99,8	2,0	99,8	-	-
Xatirchi	41,9	117,2	29,8	109,1	12,1	142,3

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI

2021- yilning yanvar-may oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **88,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**48,2** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.



1,6
mlrd. so'm

Tuzlamalar



48,2
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



3,0
mlrd. so'm

**Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)



2,6
mlrd. so'm

Tovuq go'shti



8,8
mlrd. so'm

**Non va non
mahsulotlari**



1,8
mlrd. so'm

Tuxum



1,3
mlrd. so'm

Ziravorlar



4,4
mlrd. so'm

Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)



1,1
mlrd. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**



14,1
mlrd. so'm

**Chorva mollari va parrandalar
uchun har xil yem-xashaklar**



1,0
mlrd. so'm

**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari** (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd. so'm

2021- yilning yanvar-may oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **68,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **55,3** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **12,6** mlrd. so'mni, otlar **0,4** mlrd. so'mni, parrandalar **0,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.



UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2021- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,4 %** ni tashkil etib, **78,9** mlrd. so'mga yetdi va 2020 - yilning mos davriga nisbatan **13,3 %** ga kupaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **83,4 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

	Jami, mlrd. so'm	2020- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar , mlrd. so'm	2020- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2020- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	78,9	113,3	13,1	169,9	65,8	106,2
Navoiy sh.	28,4	103,6	5,2	89,7	23,2	107,4
Zarafshon sh.	12,7	116,3	2,8	159,4	9,8	108,0
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	8,9	103,7	0,1	57,3	8,8	104,5
Konimex	1,4	104,3	-	-	1,4	104,3
Qiziltepa	4,9	106,3	-	-	4,9	106,3
Navbahor	11,7	180,7	5,0	-	6,7	103,8
Nurota	1,5	105,3	-	-	1,5	105,3
Tomdi	0,3	103,4	-	-	0,3	103,4
Uchquduq	3,5	106,1	-	-	3,5	106,1
Xatirchi	5,6	105,5	-	-	5,6	105,5

MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2020- yil
yanvar-may



7,4 %



92,6 %



2021- yil
yanvar-may



6,6 %



93,4 %

 Nodavlat mulki

 Davlat mulki

2020-yilning mos davri bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi 7,4 % dan 6,6 % ga kamaygan.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi 78,9 mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 113,3 %) va mulkchilik shakllari bo'yicha 73,7 mlrd. so'm nodavlat mulkka (93,4 %) hamda 5,2 mlrd. so'm (6,6 %) davlat mulkiga to'g'ri keldi.

	Jami, mln. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulk, mln. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda
Navoiy viloyati	78 883,7	100,0	73 678,4	99,9	5 205,3	6,6
Navoiy sh.	28 429,5	36,0	23 224,2	31,5	5 205,3	18,3
Zarafshon sh.	12 653,6	16,0	12 653,6	17,2	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	8 886,7	11,3	8 886,7	12,1	-	-
Konimex	1 392,4	1,8	1 392,4	1,9	-	-
Qiziltepa	4 888,7	6,2	4 888,7	6,6	-	-
Navbahor	11 745,7	14,9	11 745,7	15,9	-	-
Nurota	1 493,2	1,9	1 493,2	2,0	-	-
Tomdi	296,2	0,4	296,2	0,4	-	-
Uchquduq	3 492,2	4,4	3 492,2	4,7	-	-
Xatirchi	5 605,4	7,1	5 605,4	7,6	-	-

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **533,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **16,2 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi **138,2** mlrd. so'mni (**43,6 %** ga kamaydi) tashkil etdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Ulgurji
savdo

533,7 mlrd so'm, 100 %


Yirik
korxonalar

**138,2 mlrd so'm,
25,9 %**


Mikrofirma
va kichik
korxonalar

**395,4 mlrd so'm,
74,1 %**

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, % da



Ulgurji savdo tovar aylanmasi, foizda



Yirik
korxonalar



Mikrofirma va
kichik korxonalar



ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'ati Navbahor tumanida 4 barabar yuqori kuzatildi.

	Jami, mlrd. so'm	2020- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	533,7	100,0	138,2	56,4	395,4	101,0
Navoiy sh.	254,7	47,7	98,4	41,0	156,3	103,3
Zarafshon sh.	18,3	3,4	-	-	18,3	102,4
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	142,3	26,7	10,1	283,8	132,2	99,4
Konimex	2,8	0,5	1,1	100,8	1,7	100,7
Qiziltepa	34,2	6,4	-	-	34,2	102,9
Navbahor	36,7	6,9	28,7	-	8,0	92,1
Nurota	6,7	1,3	-	-	6,7	104,0
Tomdi	0,8	0,1	-	-	0,8	22,7
Uchquduq	11,7	2,2	-	-	11,7	105,1
Xatirchi	25,4	4,8	-	-	25,4	102,4


MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

So'nggi yillarda ulgurji savdoda davlat sektorining o'rne oshib bormoqda. Hisobot davrida ushbu sektorning jami ulgurji tovar aylanmasidagi ulushi **0,2 %** ni tashkil qildi. 2021- yilning yanvar-may oylari yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi **533,7** mlrd. so'mni tashkil etib, shu jumladan, nodavlat tasarrufga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi **532,9** mlrd. so'mni va davlat tasarrufiga ega korxonalar tomonidan **0,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Davlat mulki, 0,1 %



Nodavlat mulk, 99,9 %



Davlat mulki, 0,2 %



Nodavlat mulk, 99,8 %

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi bo'yicha mulkchilik shakllarining ulushi tahlil qilinganda, davlat mulkiga tegishlisi faqatgina Karmana tumanida saqlanib qolinganligini ko'rish mumkin. Boshqa barcha hududlarda ulgurji savdo to'liq nodavlat mulkka tegishli.